

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

## **AMALIY FILOLOGIYA**

**2021 Vol. 1(4)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:**

Saodat Muhamedova

**Bosh muharrir orinbosari:**

Botir Elov

**Mas‘ul kotib:**

Xurshida Qodirova

### **Tahrir kengashi**

Aynur O‘zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Rashid Zohidov, Muyassar Saparniyazova, Manzura Abjalova, Nargiza Musulmonova, Yekaterina Shirinova, Shoira Isayeva, Oqila Turaqulova, Ikrom Islomov, Munira Shodmonova

### **Jurnal haqida ma‘lumot**

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda amaliy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish, noshirlik ishi hamda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, kompyuter lingvistikasi kabi sohalariga oid tadqiqotlar nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnal ilovasining maqsadi – ko‘rsatilgan sohalariga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya” seriyasida professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, o‘zbek tilini o‘qitish, noshirlik ishi yo‘nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya” seriyasi 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.  
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.

**Email:** [apcl@navoiy-uni.uz](mailto:apcl@navoiy-uni.uz)

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

# MUNDARIJA

## I. AMALIY FILOLOGIYA

1. **C.X.Mухамедова, Л.Х.Самситова**  
Функционально-семантический анализ ласкательно-уменьшительных единиц в узбекском и башкирском языках.....4
2. **D.Lutfullayeva, M.Saparniyazova**  
Nom yaratishning milliy texnologiyasi.....13
3. **D.A.Xidoyatova**  
Ta’lim samaradorligini oshirishda interfaol jarayonning roli.....24
4. **M.B.Shodmonova**  
Ona tili va adabiyot o’qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida.....34
5. **Sh. Isayeva**  
Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarida ruhiyat talqini.....53

## II. KOMPYUTER LINGVISTIKASI

6. **L.Raupova, B.Elov, M.Abjalova, R.Alayev**  
O`zbek tilining ta’limiy korpusi va uning imkoniyatlari.....60
7. **B.Elov, X.Axmedova**  
Polisemantik so‘zlarni semantik tahlil qilishning matematik modellari.....77
8. **M.Abjalova**  
Leksik ma’lumotlar bazalari tasnifi.....86
9. **D.Q.Elova**  
O`zbek tili milliy korpusi uchun chegaralangan leksikani annotatsiyalash muammolari xususida.....97

<http://www-ksl.Stanford.edu/kst/what-is- an-ontology.html> /Gruber T., What is an Ontology?

<https://ru.wikipedia.org/wiki/Ontologiya>

[http://www.cyc.com/doc/white\\_papers/AAAI06SS-SyntaxAndContentOfCyc.pdf](http://www.cyc.com/doc/white_papers/AAAI06SS-SyntaxAndContentOfCyc.pdf)  
Matuszek C., Cabral J, Witbrock M., DeOliveira J. An Introduction to the Syntax and Content of Cyc.

## **O‘ZBEK TILI MILLIY KORPUSI UCHUN CHEGARALANGAN LEKSIKANI ANNOTATSIYALASH MUAMMOLARI XUSUSIDA**

**D.Elova<sup>1</sup>**

### **Annotatsiya**

O‘zbek tili korpuslarida nutq uslublariga xos so‘zlar haqidagi ma'lumotlarni qidirish uchun, avvalo, korpus bazasiga so‘zlarning shunday xususiyatlari haqida teglar kiritilishi lozim. Buning uchun o‘zbek tilining izohli lug‘atida leksemalarga nutq uslubiga tegishlilik haqidagi pometalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqolada so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni annotatsiyalashda izohli lug‘atda berilgan pometalarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *milliy korpus, teg, uslubiy teg, pometa, so‘zlashuv uslubi.*

### **Kirish**

Insonlar hayoti va mashg‘ul bo‘ladigan sohalarning turli-tumanligi ularning yoshi, jinsi, bilim darajasi, kasbi, jamiyatda tutgan mavqeyi va boshqa omillarga bog‘liq ravishda tildan foydalanishning o‘ziga xos manerasini, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Tildan foydalanishdagi uslublar rang-barangligining boisi ham ana shunda. Shuning uchun ham tildan foydalanishda har bir kishining jinsi, yoshi yoki kasbidan, u yashayotgan ijtimoiy muhitdan kelib chiqadigan o‘z uslubi bo‘lishi mumkin. Hayot jabhasi, insoniyatning faoliyat doirasi va ko‘lami g‘oyatda keng. Har bir ijtimoiy sohada tilni ehtiyojdan kelib chiqib ishlatadi. Bu ham tabiiy ravishda tildan foydalanishning o‘ziga xos tarzini, uslubini keltirib chiqaradi. Demak, tilni iste'mol qilish kompleksida har bir shaxsning, kasb egalarining, ijtimoiy guruhlarning, hatto muloqot jarayonining o‘z uslubi bo‘lishi tabiiy. *Funksional uslub* tushunchasi nutqiy faoliyatning ana shu jihatlarini o‘zida mujassam qiladi. [Каримов 2010]

**Uslub** – tilning inson faoliyati muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratiladi. Vazifaviy uslub nutq ko‘rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa,

---

<sup>1</sup> *Elova Dilrabo* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: [elovadilrabo@navoiy-uni.uz](mailto:elovadilrabo@navoiy-uni.uz)

ORCID: 0000-0002-2329-1811

Iqtibos uchun: Elova, D. 2021. "O‘zbek tili milliy korpusi uchun chegaralangan leksikani annotatsiyalash muammolari xususida". *O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1 (4):

xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. O'zbek adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud:

- 1) so'zlashuv uslubi;
- 2) rasmiy uslub;
- 3) ilmiy uslub;
- 4) publitsistik uslub;
- 5) badiiy uslub.

Vazifaviy uslubni nomlash ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi.

### **Asosiy qism**

O'zbek tili korpuslarida nutq uslublariga xos belgilar asosida qidiruvni amalga oshirish, materialga ishlov berish kabi funksiyalar korpus lingvistik ta'minotidagi axborotga bog'liq bo'lganligi sababli ma'lumotlar bazasiga shunday teglardan iborat ma'lumotlarni kiritish maqsadga muvofiq.

O'zbek tilining izohli lug'atida uslubiy xarakteristika va uni qayd etuvchi belgilar, asosan, chegaralangan qatlamga oid so'zlar uchun berilgan va ular izohli lug'atda juda muhim vazifa bajaradi. Uslubga xoslikni bildiruvchi belgilarni qo'yish bilan so'zning qo'llanish sohasi, o'rni qayd etilgan. Natijada, so'z ma'nosining izohi bilan birga unga xos boshqa belgi-xususiyatlar dalillangan.

Misol: **IMOMATCHILIK** s. t. ayn. **imomlik**.

Demak, s.t. belgisi bilan, birinchidan, *imomatchilik* so'zining so'zlashuv uslubiga mansubligi qayd etilgan bo'lsa, ikkinchidan, bu so'z adabiy tildagi *imomlik* so'ziga havola qilingan va izohdan "ozod qilingan" (izoh *imomlik* so'zida berilgan). Lug'at tarkibidan polisemantik va omonim so'zlar ham o'rin olgan. Polisemantik so'zlarning bosh so'zi yoki biror ma'nolarida q. (qarang) yoki ayn. (aynan) belgilari bilan boshqa so'zga havola etilgan hollar ham kuzatiladi. Bunday hollarda ham yuqoridagi kabi hodisalar yuz bergan. Bosh so'z ma'nosi yoki ma'nolaridan birining izohi oldidan grammatik va uslubiy belgi qo'yiladigan bo'lsa, avval grammatik, so'ngra uslubiy belgi berilgan.

Misol: **AYBDOR 1** *ot* Ayb ish qilgan kishi; gunoxkor. [*Ota*] *Bolalari oldida aybdordek, ho'l o'tin vishillab sasiyotgan o'choqqa tikiladi.* P. Tursun, O'qituvchi.

**2 ot, huq.** Jinoiy ish qilgan, qonunga xilof ish qilgan, jinoiy javobgar kishi. *Navbatchi militsioner aybdorni olib chiqib ketdi.* H.G'ulom, Mash'al. *Aybdor va loqayd rahbarlarga nisbatan murosasizlik qilib kelingan.* Gazetadan.

**3 sft.** Jismoniy jihatdan kamchiligi, nuqsoni, illati bor; aybli. *Aybdor qiz. -Bir ko'zidan aybdormi? — Shunaqa.* P. Tursun, O'qituvchi.

Agar birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'z ma'lum bir ma'nosi yoki ma'nolari bilan chegaralangan qatlamga mansub bo'lsa, uslubiy belgi shu ma'nosi yoki ma'nolarining izohidan oldin qo'yilgan.

Misol: **BARMOQ 1** *Qo'l va oyoq panjasining beshta harakatchan qismidan har biri. Bosh barmoq. Ko'rsatkich barmoq. O'rta barmoq. Besh barmoqning birini tishlasang, bari og'rir.* Maqol. *Kuchli izg'irin... quloqlarni kesadi, sovuqdan oyoqlarning barmoqlari uvushadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Momiq paxtalar uning [Gavharning] nozik barmoqlariga o'zi ilashib chiqar, chanoqlar hayratdan og'iz*

*ochib, silkinib qolardi. O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. Uning [Gulandomning] barmoqlari dutor torlarida mohir o‘ynadi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

2. Taxminan o‘rta qo‘l (barmoq) eniga baravar uzunlik o‘lchovi. *Kimga barmoqday, kimga tirnoqday.* Maqol. *Beshta balo nedan kelar, Ikki barmoq tildan kelar.* Maqol. *Bo‘yi yerdan to‘rt barmoq ko‘tarilgan g‘o‘za oralariga yoyilgan xotin-qizlar paxta oralig‘idagi yot o‘tlarni termoqda edilar.* S.Ayniy, Qullar.

**3** *tex.* Mashina va mexanizmlarnint g‘o‘lacha shaklidagi qismi.

Lug‘atda bosh so‘zning har qanday ma‘nosi emas, balki uning hozirgi umumiste‘molda bo‘lgan, ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan ma‘nosi (ma‘nolari) qayd etilgan. Bosh so‘z bir ma‘noli bo‘lsa, lug‘at maqolasi shu ma‘nosiga tuzilgan. Ko‘p ma‘noli bo‘lsa, har bir ma‘nosi, ma‘lum tartibda, to‘q qora rangli arab raqami bilan alohida-alohida qayd etilgan (Raqamdan keyin nuqta qo‘yilmagan). Bunda:

1) bosh so‘z barcha ma‘nolari bilan bir turkumga oid bo‘lsa, bu ma‘nolari, ularning o‘zaro bog‘lanishini hisobga olgan holda tartiblangan. Mas, *shisha* so‘zi “qattiq va shaffof material” – “oyna” va “shu materialdan yasalgan bo‘g‘zi tor idish” – “butilka” ma‘nolariga ega bo‘lib, izohli lug‘atda xuddi shu tartibda berilgan: **SHISHA** 1 [izoh]; oyna. Shishadan yasalgan. 2 [izoh]; butilka.

2) so‘zning ma‘nolari umumiste‘molga va chegaralangan qatlamga oid bo‘lsa, umumiste‘molga oid ma‘nosi (ma‘nolari) oldin, boshqa ma‘nolari keyin berilgan. Misol: **O‘ZAK** 1 [izoh]... 3 tish. [izoh]...

3) bosh so‘z birdan ortiq so‘z turkumiga oid ma‘noga ega bo‘lsa, so‘z mansub bo‘lgan turkumga oid ma‘nosi oldin, boshqasi keyin berilgan. Misol: **OQ** 1 sft. [izoh] Oq ot. 5 ot s.t. Aroq.

4) almashtirilgan so‘zlarda quyidagicha yo‘l tutilgan: 1. Agar so‘z butunlay (ya‘ni bir ma‘noli bo‘lsa, shu ma‘nosida, ko‘p ma‘noli bo‘lsa, barcha ma‘nosida) boshqa so‘zga almashtirilgan bo‘lsa, uning ma‘nosi (ma‘nolari) qayd etilmagan. Uni q. (qarang) yoki ayn. (aynan) belgisi orqali, almashtirilgan so‘zga havola etish bilan cheklanilgan. Misol: **SEKRETAR** q. kotib. 2. Almashtirilgan so‘z o‘rnida hozir ikki yoki undan ortiq so‘z qo‘llanayotgan bo‘lsa, ana shu so‘zlarga havola etilgan. Misol: **SOYUZ** q. uyushma, ittifoq. 3. Almashtirilgan so‘z biror ma‘nosi yoki ma‘nolari bilan iste‘molda qolgan bo‘lsa, o‘sha ma‘nosi (ma‘nolari) qayd etildi. Qaysi ma‘nosi (ma‘nolari)da boshqa so‘zga almashgan bo‘lsa, arabcha 1 raqami bilan o‘sha so‘zga havola etiladi. Misol: **ALIFBE** 1 esk. ayn. alifbo... 2 [izoh] Alifbe kitobi **ANALIZ** 1 ayn. tahlil... 3 [izoh] Qon analizi. Analizga qon topshirmoq.

5) so‘zning biror shakli lug‘aviy ma‘no kasb etgan bo‘lsa, dastlab (1 raqami bilan) qanday vazifa va ma‘noli shakl ekani qayd etilgan. So‘ngra (tegishli) tartibni qayd etuvchi raqam(lar) bilan lug‘aviy ma‘nosi (ma‘nolari) berilgan. Misol: **G‘O‘DAYGAN** 1 G‘o‘daymoq fl. sfdsh. 2 sft. [izoh]. Juda g‘o‘daygan odam. **UNASHMOQ** 1 Unamoq fl. birg. n. Aytganlariga unashibdi. 2 [izoh] ...qizini qarindoshning o‘g‘liga unashibdi. **TINCHITMOQ** 1 Tinchimoq fl. ort.n. 2 [izoh]... 3 [izoh]...

6) bosh so‘z yordamchi (ko‘makchi) so‘z vazifasiga ega bo‘lsa, bu holat uning asosiy ma‘nolaridan keyin, tegishli raqam bilan qayd etilgan. Misol: **ICH** 1 [izoh]. Uyning ichi... 6 (Egalik va makon kelishiklari shaklida – ichiga, ichida, ichidan) ko‘m. vzf. Makon, vaqt munosabatlarini bildiradi. *Uy ichidan tovush*

*eshitildi. Bir yil ichida juda ko'p narsalarni o'rganib oldi. KO'RMOQ* 1 [izoh]... ko'm. fl. vzf. -(i)b, -a/-y affiksli ravishdosh shakliga qo'shib, turli grammatik ma'nolar ifodalaydi. Yozib ko'r. Bora ko'rma.

7) ot turkumiga oid so'zlarning kishi ismi bo'lib qo'llanishi uning barcha ma'nolaridan so'ng, tegishli raqam bilan bosh harfda qayd etiladi. Misol: **AZIZ** 1 [izoh]... 6 **AZIZ** (erkaklar ismi).

Adabiy til umumxalq tilining ishlov berilgan, sayqallashtirilgan, grammatik jihatdan qoidalashtirilgan me'yorlashtirilgan, umummajburiy, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiladigan tildir. Adabiy til uchun sheva, so'zlashuv tiliga tegishli bo'lgan so'zlarni ishlatilmasligi xos. Til kishilik jamiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muomala jarayonida kommunikatsiya vazifasini o'tar ekan, adabiy til bilan birga uning vazifaviy uslublari ham qo'llaniladi. Uslub – tilning inson faoliyati muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratiladi.

O'zbek tili korpuslarida nutq uslublari xos so'zlar haqidagi ma'lumotlarni qidirish uchun, avvalo, korpus bazasiga so'zlarning shunday xususiyatlari haqida teglar kiritilishi lozim. Buning uchun o'zbek tilining izohli lug'atida leksemalarga nutq uslubiga tegishlilik haqidagi pometalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqolada so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni annotatsiyalashda izohli lug'atda berilgan pometalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida uslubga xoslikni bildiruvchi belgilarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- 1) so'zlashuv uslubiga xos belgilar;
- 2) badiiy uslubga xos belgilar;
- 3) publitsistik uslubga xos belgilar;
- 4) ilmiy uslubga xos belgilar;
- 5) rasmiy uslubga xos belgilar.

**So'zlashuv uslubi** – kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos qo'llanilishidir. Bu uslub o'ziga xos ish ko'rsatish sharoiti, ya'ni fikr almashinuvning bevositaligi, til vositalarini tanlab ishlatilmasligi bilan, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng foydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressiv-emotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. So'zlashuv uslubi uchun nutqning dialogik shaklda bo'lishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi, mazkur uslubga xos bo'lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar (gumon, ishonch, piching, qat'iylik, hazil)ning ko'proq qo'llanishi, so'zlovchi his-tuyg'ularidan, munosabatidan kelib chiqadigan emotsional-ekspressivlikning mavjudligi, nutqiy muloqotga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko'proq bo'lishi, haqorat, erkalov, kichrayturuv, oddiy muomalaga oid so'zlarning ishlatilishi xosdir. Uslubiy bo'yog'i bilan ajralib turadigan lug'aviy birliklar so'zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi. Ularda soddalik, ta'sirchanlik, erkinlik, vaziyatboplik sezilib turadi. So'zlashuv stilining ikki xil ko'rinishi bor: 1) adabiy so'zlashuv stili; 2) oddiy so'zlashuv stili.

Adabiy so'zlashuv uslubidan davlat idoralarida foydalaniladi va bu uslubda jargon va sheva so'zlari ishlatilmaydi.

Oddiy soʻzlashuv tilida betakalluflik bilan erkin muomala qilinadi. Bunda shunday soʻzlar ishlatiladiki, ular adabiy tilda boʻlmasligi mumkin.

Ya'ni soʻzlashuv uslubida insonlar til birliklaridan oʻzlari uchun qulay boʻlganini tanlab ishlatadilar. Masalan: yegulik // yegilik, yaylov // yoyloq, toʻxtab qolmoq, yopilmoq, yotmoq (*Samovar yotgan, bir chol choynak-piyola artar, hovuz boʻyidagi supada kimdir xurрак otib uxlar edi.* A.Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari.), juda // ja, yogʻ, moy // jir kabi juftliklarning ikkinchisi asosan soʻzlashuv uslubiga xos. Soʻzlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik oʻziga xosliklarga ega. Soʻzlashuv uslubining qoʻllanish doirasi nihoyatda keng boʻlganligi va mamlakatning turli mintaqalarida tarqalganligi sababli bu uslub anchagina variantlashadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida bu uslubga xos soʻzlarni bir necha ichki guruhlariga boʻlib belgilab berilgan.

**Soʻzlashuv tili** (ogʻzaki nutq)da qoʻllanadigan soʻz, iboralar **s.t.** belgisi bilan belgilanib, izoh berilgan.

Masalan, **TAHRIRCHI** *s.t.* Tahrir qiluvchi, tahrir ishlarini bajaruvchi; muharrir; musaxxih.

Agar soʻz bir necha ma'nolarni bildirib, birdan ortiq uslubga tegishli boʻlsa, soʻzning ma'nolari arab raqamlari bilan belgilanib, uslubni ifodalovchi belgi undan keyin koʻrsatilgan.

Masalan, **TEATR** [*lot.* theatrum < *yun.* theatron – tomoshaxona] **1** Aktyorlarning sahnadagi harakatlari orqali hayotni, hayotiy hodisalarni badiiy ravishda aks ettiruvchi san'at turi, shu san'atga asoslangan tomoshalar. *Qoʻgʻirchoq teatri. Kitob nashr etish, teatr, kino, televidenie va radioga katta e'tibor berilayotganining guvohi boʻldik. Gazetadan. Kino, teatr kabi san'at turlari orasida adabiyot ham tarbiyaning eng faol va samarador omillaridan biridir. "Fan va turmush"*.

**2** Shunday san'at vositasida tomoshalar qoʻyish bilan shugʻullanuvchi muassasa. *Navoiy nomidagi opera va balet teatri. Yosh tomoshabinlar teatri. Bizning teatr hali yangida. Usta oʻynovchilar yoʻq, – izoh bera boshladi Abdishukur. Oybek, Tanlangan asarlar.*

**3** Shunday san'at namoyish qilinadigan, tomoshalar koʻrsatiladigan joy, bino. *Teatr tomoshabinlar bilan liq toʻlgan edi. Bu yerda yana bitta muhtasham teatr qad koʻtaradi. [Alimardon] Teatr etagidagi boqqa kirgandagina oʻziga keldi. Oʻ.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.*

**4** *s.t.* Aktyorlarning sahnadagi harakati orqali koʻrsatiladigan tomosha; spektakl. *Esingda bormi, rayondan teatr koʻrib kelayotgan kechamiz, aravada Sotiboldi, ashula aytamiz, deb Kanizakni qistadi, koʻnmagandan keyin, sochidan tortdi.* A.Qaxxor, Qoʻshchinor chiroqlari.

**AVAGʻA 1** *ayn. chevvara.*

**2** *s.t.* Uzoq qarindosh, chatishgan qarindosh. *Avagʻamning avagʻasi, umurtqamning shoʻrvasi.* Juda uzoq, chatishgan qarindosh haqida.

**AVLIYO** [*a. valilar*] **1** *din.* Valilar, e'tiqodli, dindor kishilar; aziz, muqaddas, ollohga yaqin kishilar; ruhoniylar. *Xoja Bahouddin Naqshbandning Buxoroda avliyo sifatida shuhrat topishida bir voqeya sabab boʻlgan ekan. Gazetadan.*



**2 s.t.** Karomat, bashorat qila oladigan, mo'jizalar ko'rsata oladigan odam. *Men shunday avliyomanki, agar tosh yoki daraxtni chaqirsam, oldimga darrov keladi. "Latifalar". Tantiboyvachcha olazarak bo'lib, yelkasini qisdi va yerga qarab dedi: -Biz avliyomizmi? Qaerda ekanini aytish juda mushkul.* Oybek, Tanlangan asarlar.

**3 s.t. kest.** Ulug', zo'r fahmlanuvchi odam yoki narsa. *Nima, zveno bo'lib, avliyo bo'ptimi?* Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Xotin kishi esa ojiza, avliyosi ham hasaddan xoli emas.* F. Musajonov, Himmat.

**4 s. t.** Hech narsa bilan ishi yo'q, darveshsifat, darveshnamo odam. *Yuragingda O'rinboy otaning o'giti borda. Dadang pok odam. Qishloqning avliyosi u. Ishonaman.* Oybek, Quyosh qoraymas. *G'or og'zida, baland yassi tosh ustida, Yalang'och avliyo — oriq bir keksa odam gulxan yoqib o'tirardi.* Mirmuhsin, Me'mor.

**ADVOKAT** [*lot. advocatus < advocare — yordamga chaqirish*] **1** Sudda javobgarga huquqiy yordam (maslahat) beruvchi, javobgar (aybdor)ni himoya qiluvchi yurist; oqlovchi, himoyachi. *Advokat, taraf sifatida, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega bo'ladi.* Gazetadan.

**2 s. t. salb.** Maslahatchi; himoyachi.

**Bolalar nutqida** qo'llanuvchi so'zlar ham faqat og'zaki nutqqa xos bo'lganligi uchun, so'zlashuv uslubiga mansub deb ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bolalar nutqiga xos, bolalar ishlatadigan so'zlar **bol.** belgisi bilan ifodalangan va izohlangan.

Masalan, **AJI bol.** Yuzini qo'llari bilan to'sib, ahyon-ahyonda ko'rsatib (ko'rinish berib) aytiladigan so'z (bolalar o'yinida).

**AJI-AJI 1** Bolalarning shunday so'z aytib o'ynaydigan o'yini. *Yuzini ikki qo'li bilan to'sib, aji-aji qilganday iljaydi, ular [bolalar] kulishdi.* Iboxon, Ulug'kun.

**2 ko'chma** Shunday ma'noli qarash, xatti-harakat. *Haqiqatni ming qavat uyga qamasangiz ham, kavakdan "aji-aji" deb mo'ralab turaveradi. "Mushtum".* [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 1-tom, 44-b.]

**ACHOMLAMOQ bol. ayn. quchoqlamoq.** *Ra'no buvisining "bolaginamning bolaginasini" deb erkalashlarini, achomlab peshonasidan o'pishlari – yana allaqanaqa odatlarini qo'msardi.* H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar. [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 1-tom, 123-b.]

**Dag'al, qo'pol so'z, ibora** ham aynan so'zlashuv tiliga xos bo'lib, **dag'l.** belgisi ostida izohlangan.

Masalan, **AKILDOQ 1** Bo'lar-bo'lmasga, unar-unmasga akillayveradigan, hadeb vovillayveradigan (it haqida). *Akildoq kuchuk.*

**2 ko'chma dag'l.** Bo'lar-bo'lmasga valdirayveradigan; vaysaqi.

3 ko'chma dag'l. Hadeb yig'layveradigan, yig'loqi, jag'i ochiq (go'dak haqida). [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 1-tom, 61-b.]

**BURUQ: yurak** (*yoki ich*) **burug'i** (*to'g'risi: ichburug', yurakburug'*) 1) *ayn. dizenteriya. Kelsa xotinning urug'i, Topiladi yo'rig'i, Kelsa erning urug'i, Bo'lar yurak burug'i.* Maqol; 2) *ko'chma dag'l. mujmal odam.*[O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 1-tom, 385-b.]

**VIT taql. s.** Bedana va sh. k. qushlarning ovozi haqida. *Bedananing "vit" degani – qochgani.* Maqol.

Vit demoq *s. t. dag'l.* Qochmoq, yengilmoq, o'yindan chiqmoq. *Qo'lidan kelmasa, "vit" deb maydonni bo'shatib qo'ya qolsin-da!* U.Ismoilov, Saylanma. [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 1-tom, 72-b.]

Mensimaslikni ifodalovchi yoki betakalluf muomalada qo'llanuvchi so'zlar **betklf.** belgisi bilan ifodalangan va izoh berilgan.

Hududiy dialektlarga oid so'z iboralar *shv. belgisi bilan izohlangan: YEMTIK shv. yemish. Jo'xoriday qular dushmanning loshi, Quzg'unlarga yemtik bo'ladi go'shi. "Yusuf va Ahmad". Bundan so'ng sira yovuzga yemtik bo'lmas.* Mirtemir. [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 2-tom, 12-b.]

**YENGCHA shv. ayn. yenglik.** *Onasi tandir oldida qo'liga yengcha kiyib, loladek qip-qizil kulcha betiga suv sepyapti. S. Ahmad, Suvlar oqib ketdi. Sojidaxon tutayotgan yengchasiga kosadagi suvdan sepib o'chirdi. S. Zunnunova, Go'dak hidi.* [O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A.Madvaliev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2006. 2-tom, 15-b.]

**Uslub** – tilning inson faoliyati muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratiladi. Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida uslubiy xarakteristika va uni qayd etuvchi belgilar, asosan, chegaralangan qatlamga oid so'zlar uchun berilgan va ular izohli lug'atda juda muhim vazifa bajaradi. Uslubga xoslikni bildiruvchi belgilarni qo'yish bilan so'zning qo'llanish sohasi, o'rni qayd etilgan. Natijada, so'z ma'nosining izohi bilan birga unga xos boshqa belgi-xususiyatlar dalillangan.

O'zbek tili milliy korpusida shunday xususiyatga ega so'zlarni ko'rsatish tilimizning imkoniyatlarini ko'proq yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Yordamchi so'zlar (bog'lovchi, ko'makchi, yuklama) ham ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, lekin lug'atning vazifasi va maqsadi talabiga ko'ra, ularning barcha ma'nolarini qayd etish shart bo'lmaydi.

Yordamchi soʻzlar asl vazifasidan, maʼnosidan boshqa maʼno va vazifaga ega boʻlsa, bu hodisa alohida (tegishli raqamlar bilan) qayd etilgan.

Masalan: **lekin** bogʻlovchisi ot vazifasida ham qoʻllanadi: *Pulni undirish uchun akam uncha shoshilmas edi, bir parcha bogʻ biz uchun kerak emas. Uning lekini bor...* Oybek, Tanlangan asarlar. **Lekin** soʻziga xos bu xususiyatlar alohida qayd etiladi:

**LEKIN** 1 bogʻl. 2 ot vzf.

*Bilan* soʻzi, koʻmakchi vazifasidan tashqari, bogʻlovchi vazifasiga ham ega. Bu holat ham izohli lugʻatda qayd etilgan.

Ajratib yoziluvchi yasama soʻzlar va turgʻun birikmalarning maʼnosi ham qayd etildi. Agar ular birdan ortiq maʼnoga ega boʻlsa, tegishli tartibda, yopiq qavsli arab raqami [1), 2)] bilan qayd etilgan.

Misol: Qoyil qilmoq 1) oʻrinlatib, boplab ado etmoq, bajarmoq...; 2) [izoh]. Boshiga koʻtarmoq 1) oʻta hurmat qilmoq...; 2) baqiriq-chaqiriq, shovqin-suron qilmoq...

Lugʻat maqolasining eng asosiy qismi (komponenti) izohlanuvchi birliklar maʼnosi (maʼnolari)ga beriladigan izohdir. Lugʻatning “Izohli lugʻat” deb atalishi ham, asosan, xuddi shu vazifasidan kelib chiqadi. Binobarin, izohli lugʻatning muvaffaqiyati, qiymati ana shu vazifaning qay darajada bajarilganligi, shu maqsadga qay darajada erishilganligi bilan belgilanadi.

Soʻz maʼnosini izohlash taʼrif, tavsif, tushuntirish kabi yoʻllar bilan boʻladi. Mustaqil soʻzning, aniqrogʻi, nomlovchi soʻzning maʼnosi uning tarkibiy qismlari (semalari) asosida izohlanadi.

Misol: **ODAM** 1 Fikrlash, soʻzlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega jonli zot. **XUNUK** 1 Yoqimsiz husnli...

Olmoshlarga beriladigan izoh, ularning qaysi soʻz turkumiga oid soʻz oʻrnida qoʻllanishiga qarab, har xil boʻladi.

Misol: **KIM** 1 Shaxs haqida soʻroqni bildiradi... **BIZ** 1 Soʻzlovchi va u mansub boʻlgan shaxslar guruhi...

Son turkumiga oid soʻzning maʼnosiga berilgan izoh ayni shu raqam va u bildiradigan songa teng boʻladi.

Misol: **YIGIRMA** 1 20 raqami va u bilan ifodalangan son, miqdor.

Yordamchi soʻzlarning maʼnosi (maʼnolari) alohida (maxsus raqamlar bilan) qayd etilmasligi hamda buning sababi yuqorida aytili. Yordamchi soʻz bir maʼno va vazifaga ega boʻlsa, u taʼriflanadi va tasdiqlovchi misol keltiriladi.

Misol: **AGAR** yukl. Shart maʼnosini kuchaytiradi, taʼkidlaydi. *Agar koʻchada boʻlmasa edi, Yoʻlchi shu onda bu goʻzal.. qizning oyoqlariga bosh qoʻyishga tayyor edi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

**SINGARI** koʻm. Oʻxshatish, qiyosni bildiradi. *Men ham sen singari yigirma ikki yoshimda qaynab, toshib yurgan kezzarim edi.* M.Ismoilij, Fargʻona tong otguncha.

Yordamchi soʻz birdan ortiq maʼno va vazifaga ega boʻlsa, ularning asosiylari aytilib, tasdiqlovchi misollar keltirish bilan chegaralaniladi.

Misol: **UCHUN** koʻm. Sabab, maqsad, atalganlik kabi maʼnolarni bildiradi, shunday maʼnoli munosabatlarni koʻrsatadi. *Yormat shahardan piyoda qaytib,*

*o'lguday horigani uchun, hamma otlarga Yo'lchi qaradi.* Oybek, Tanlangan asarlar.  
*Bu yerga Madali akaning jig'iga tegish, rashkini keltirish uchun kirganligimni eslab, mulzam bo'ldim.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda. *Xo'jayinning qizi uchun palak, dorpech, qiyiq tikadi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

Yordamchi so'zlar asl vazifasidan tashqari yana boshqa ma'noga (boshqa so'z turkumiga xos ma'noga) ega bo'lsa, ularning har biri lug'atda alohida qayd etilishi yuqorida aytiladi. Bunday hollarda izoh masalasi quyidagicha hal etilgan:

1. Agar muayyan so'z har bir vazifasida ham yordamchi so'z bo'lsa (masalan, bilan so'zi kabi), ularning izohi yuqorida qayd etilganidek amalga oshiriladi.

2. Agar yordamchi so'z boshqa so'z turkumiga oid ma'noga ham ega bo'lsa, 1 raqami bilan uning yordamchi so'z (bog'lovchi, ko'makchi yoki yuklama) ekanligi qayd etiladi va yordamchi so'z sifatida (yuqorida aytilgan yo'l bilan) izohlanadi.

Boshqa turkumga oidligi tegishli raqam bilan qayd etiladi va qaysi so'z turkumiga oid bo'lsa, o'sha turkum so'zlari izohlanadigan yo'l bilan izohlanadi.

Misol: **BALKI** bog'l. [izoh]... mod.s.

Undov, taqdid so'z va modal so'zlarda, asosan, uning nimani bildirishi, ifodalashi ko'rsatiladi, ya'ni izoh tarkibida "bildiradi", "ifodalaydi" kabi so'z bo'ladi.

Misol: **VOY** 1 Kattiq og'riq, azob hissini ifodalaydi... 3 Hayajon, hayrat hissini bildiradi.

**GUMBUR** 1 Portlash, ag'darilish va sh. k. natijasida yuzaga keladigan tovushni, shunday tovushga taqlidni bildiradi.

**ALBATT** 1 Fikr, ish-harakat va sh. k. ning qat'iyligini bildiradi.

So'zning lug'atda qayd etilgan bironta ham ma'nosi izohsiz qolmasligi kerakligi yuqorida aytiladi. Lekin bu degani so'zning lug'atda qayd etilgan har bir ma'nosi shu o'rinda izohlanishi shart degan so'z emas. Izohli lutatda bunday yo'l tutish mumkin ham emas. Chunki bunday yo'l tutiladigan bo'lsa, lug'at takror holdagi izohlar bilan to'lib ketadi. Til korpusida bu chegara yo'q, lingvistik ta'minot barcha ma'nolar va ularning izohlarini qamrab oladi hamda kerakli oynada so'ralgan ma'nosi chiqadi (ko'rinadi).

Ma'lumki, o'zbek tilida ma'nodosh (sinonim) so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning har birida ayni bir ma'noga izoh berilaversa, lug'atda takroriy izohlarning qay darajada ko'payishiga e'tibor berishning o'zi kifoya. Ana shu holatga yo'l qo'yimaslikka, shu bilan birga, so'zning lug'atda qayd etilgan har bir ma'nosi izohga ega bo'lishini ta'minlashga ikki xil yo'l bilan erishiladi:

1) so'z ma'nosini ta'rif, tushuntirish yo'li bilan izohlash, ya'ni ma'noga izoh berish;

2) so'z ma'nosini boshqa so'zning ma'nosiga havola etish.

Bulardan birinchisi so'z ma'nosini izoh bilan ta'minlashning asosiy yo'li bo'lib, so'zning umumiste'molga oid, adabiy tildagi ma'nosi (ma'nolari), albatta, ana shunday izoh bilan ta'minlandi. Ikkinchi yo'l esa o'zaro ma'nodosh so'zlarni izohlashda qo'llanadi. Masalan, ma'nodosh so'zlardan biri umumiste'molga oid bo'lsa, boshqasi chegaralangan qatlamga mansub bo'ladi; biri uslubiy jihatdan betaraf bo'lsa, boshqasi uslubning biron turiga mansub bo'ladi va hokazo. Bosh so'zning umumiste'molga oid, adabiy tilda keng qo'llanishda bo'lgan, uslubiy va b.

jihatdan betaraf bo'lgan ma'nosi (ma'nolari) albatta izohlanadi. Bu so'zning sinonimlari esa tegishli ma'nosi (ma'nolari) bilan unga havola etiladi. So'zlar umuman emas, balki ma'nosi, ma'lum ma'nolari bilan sinonim bo'ladi. Shunga ko'ra, izohli lug'atda umuman so'z so'zga emas, balki so'z ma'lum ma'nosi yoki ma'nolari bilan boshqa so'zning ma'nosiga yoki ma'nolariga havola etiladi.

### **Xulosa**

Korpus lingvistikasi tahlil usulining xususiyatlaridan biri nafaqat sof lisoniy hodisalar (so'zlarning grammatik yoki leksik vazifalari, boshqa leksemalar bilan aloqalari), balki funksional uslublarda leksemalar yoki grammatik konstruksiyalarning qo'llanilishi kabi hodisalarni ham o'rganishdir. Muloqot qilayotganda, inson taqdim yetilgan ma'lumotlarni tushuna olishi, nutqini samarali va aniq tuza olishi kerak. O'qigan yoki eshitgan narsangizdan kerakli ma'lumotlarni chiqarib olish ham birdek muhimdir. Har bir yozma yoki og'zaki nutq shu jamiyatning madaniy an'analari doirasida bo'lishi kerak. Shu sababdan chegaralangan leksikaga oid so'zlarni teglashtirish va uni til korpuslarida tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til korpuslari jahon amaliyotida keng qo'llanilmoqda va an'anaviy ta'lim texnologiyalariga samarali innovatsion qo'shimchalar sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbek tili milliy korpusi bazasidagi so'zlarni uslubiy belgilariga ko'ra annotatsiyalashda o'zbek tilining izohli lug'ati asosiy manba vazifasini o'taydi.

### **Adabiyotlar**

- O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A. Madvaliev tahriri ostida). 2006. 5 jildli. Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi.
- Karimov, S. 1994. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Monografiya. Samarqand: SamDU nashriyoti.
- Большой энциклопедический словарь. Языкознание. 1988. Москва: Российская энциклопедия.
- Словарь-справочник лингвистических терминов. 1985. Москва: Российская энциклопедия.
- Султонсаидова, С., Шарипова, Э. 2009. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент.
- Абрамович, Г. Л. 1970. Введение и литературоведение. Москва.
- Ахманова, О. С. 1969. Словарь лингвистических терминов. Москва.
- Каримов, С., Қаршиев, А., Исроилова, Г. 2007. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. Частотали луғат. Терс луғат. Тошкент.
- Кутузов, А.Б. Корпусная лингвистика. (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution ShareAlike 3.0 Unported: lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf.
- Недошивина, Е.В. 2006. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург.

# ON THE PROBLEMS OF ANOINTING THE LIMITED VOCABULARY FOR THE UZBEK LANGUAGE NATIONAL CORPUS

D.Elova<sup>1</sup>

## Abstract

To search for information about words characteristic of speech styles in the corpus of the Uzbek language, first of all, it is necessary to include tags about such features of words in the corpus database. For this, it is advisable to use labels in the dictionary of the Uzbek language by lexemes of speech.

This article discusses the annotated vocabulary tagging features when annotating words that are specific to the style of speech.

**Key words:** *national corpus, tag, service tag, droppings, speech style.*

## References

- O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi (A. Madvaliev tahriri ostida). 2006. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy yensiklopediyasi.
- Karimov, S. 1994. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Monografiya. Samarqand: SamDU nashriyoti.
- Bolshoy entsiklopedicheskiy slovar. Yazikoznanie. 1988. Moskov: Rossiyskaya entsiklopediya.
- Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov. 1985. Moskov: Rossiyskaya entsiklopediya.
- Sultonsaidova, S., Sharipova, E. 2009. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent.
- Abramovich, G. L. 1970. Vvedenie i literaturovedenie. Moskov.
- Axmanova, O. S. 1969. Slovar lingvisticheskix terminov. Moskov.
- Karimov, S., Qarshiev, A., Isroilova, G. 2007. Abdulla Qahhor asarlari tilining lug'ati. Alfavitli lug'at. Chastotali lug'at. Ters lug'at. Toshkent.
- Kutuzov, A.B. Korpusnaya lingvistika. (Elektron resurs): Litsenziya Creative commons Attribution ShareAlike 3.0 Unported: lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf;
- Nedoshivina, Ye.V. 2006. Programmi dlya raboti s korpusami tekstov: obzor osnovnix korpusnix menedjerov. Uchebno-metodicheskoe posobie. Sankt-Peterburg.

---

<sup>1</sup> *Elova Dilrabo* – Lecturer, Department of Applied Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

**E-mail:** [elovadilrabo@navoiy-uni.uz](mailto:elovadilrabo@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0002-2329-1811

**For reference:** Elova, D. 2021. "On the problems of annotating limited vocabulary for the Uzbek National Corps". *"Uzbekistan: language and culture. Applied Philology and Computer Linguistics"* 1(4):